

Parvozdan oldin qahva va Duty Free uchun ko'proq vaqt ajrating

2026 24 July

Uzbekistan Airways'dan onlayn ro'yxatdan o'tish bilan sayohatni boshlash yanada osonlashdi. Aeroportda ortiqcha kutishlarni chetlab o'ting – xizmat allaqachon quyidagi yo'nalishlarda mavjud:

☐☐ O'zbekiston aeroportlaridan: MDH shaharlariga, shuningdek, Istanbul va Dubayga amalga oshiriladigan barcha aviaqatnovlarga.

☐☐☐ O'zbekiston bo'yicha: barcha respublika ichidagi yo'nalishlarga.

☐ Quyidagilarni bilish muhim:

☐☐ Ro'yxatdan o'tish parvozdan 23 soat 55 daqiqa oldin ochiladi.

☐☐ Xalqaro aviaqatnovlarda parvozdan 2 soat oldin, respublika ichidagi parvozlarda esa 1 soat oldin yopiladi.

☐☐ Qog'oz shaklidagi bortga chiqish taloni O'zbekistonning barcha aeroportlarida majburiy. Uni Toshkent va Samarqand aeroportlaridagi ro'yxatdan o'tish ustunida yoki o'zini o'zi ro'yxatdan o'tkazish kioskasida (telefondagi QR-kod orqali) chop etish mumkin.

☐☐ Faqat qo'l yuki bilan sayohat qilasizmi?

Bortga chiqish talonini rasmiylashtirib, chop etgandan so'ng, umumiy ro'yxatdan o'tish ustunlariga bormasdan, parvozdan oldingi zarur tartib-qoidalaridan o'tish uchun yo'l olishingiz mumkin.

☐ Bagaj bilan sayohat qilyapsizmi?

Siz parvozga oldindan onlayn ro'yxatdan o'tishingiz, aeroportga yetib kelgach esa, ro'yxatdan o'tish yopilguniga qadar bagajingizni ro'yxatga olish ustunida topshirishingiz mumkin.

⚠ Diqqat qiling: xizmat ayrim toifadagi yo'lovchilar uchun mavjud emas. Batafsil ma'lumot: <https://goo.su/yDsY4q>

Dam olishni havo kemasiga chiqishdan oldin boshlang. uzairways.com rasmiy sayti yoki Uzbekistan Airways mobil ilovasida onlayn ro'yxatdan o'ting.